

"ALEKSANDR FAYNBERG: ADABIYOTIGA SADOQATLI IJODKOR"

Xudoyberdiyeva Mehribonu

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti (O'zDJTU) Xorijiy til
va adabiyoti yo'nalishi, ingliz tili ikkinchi fakulteti birinchi kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri, tarjimon va dramaturg Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodi haqida so'z boradi. U adabiyot, tarjima va kinematografiya sohasida katta iz qoldirib, o'zbek va rus xalqlari madaniyatini bog'lashga ulkan hissa qo'shgan. Shuningdek, maqolada Faynbergning "Eski fonus" va "Taqdir – haqdir" she'rlari tahlil qilinib, uning she'riy mahorati, badiiy uslubi va falsafiy qarashlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, o'zbek adabiyoti, tarjima, she'riyat, falsafiy lirika, adabiy meros, millatlararo hamkorlik.

ALEKSANDR FAYNBERG – IKKI MADANIYAT KO'PRIGI

Adabiyot inson ruhiyatining ko'zgusi bo'lib, xalqning ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Aleksandr Faynberg aynan shunday ijodkorlardan biri bo'lib, u adabiyot, tarjima va kino sohasida katta yutuqlarga erishgan. 1939-yilda Toshkentda tug'ilgan Faynberg o'zining butun ijodiy faoliyatini O'zbekiston madaniyatiga bag'ishladi. U 15 ta she'riy to'plam yaratgan, Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi o'zbek shoirlarining asarlarini rus tiliga tarjima qilgan va o'zining asarlari orqali millatlararo adabiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Faynbergning adabiyati milliy va xalqaro an'analarni uyg'unlashtirgan. U rus mumtoz she'riyatidan ilhomlanib, Sharq lirikasining nafislik va falsafiy teranlik an'alarini o'z asarlarida mujassam eta oldi. Uning she'rlari insoniy kechinmalar, vatanparvarlik, muhabbat va hayotiy sinovlar haqida chuqur fikrlashga undaydi.

"Eski fonus" she'rining tahlili

Faynbergning "Eski fonus" she'ri falsafiy va ruhiy iztirob ohangida yozilgan bo'lib, unda shoir o'tmish va hozirgi zamonni, xotiralar va hayotiy haqiqatni taqqoslaydi. Har bir bayt o'ziga xos ramziy ma'noga ega:

1-bayt:

"Kuylama u eski fonusni menga,
Pushkin yo Blok deb chekmagil firoq.
Ularning shu'lasi mendan ko'p yiroq,
Kuylama u eski fonusni menga."

Bu satrlarda shoir o'tgan davrning ulug' shoirlari – Pushkin va Blok ruhini o'zidan uzoq his qiladi. O'tmishga qarab o'ksinish, firoq chekishni istamaydi. U eski adabiyotning zavqini his qilsa-da, bugungi kun haqiqatlari bilan yashash tarafdori.

2-bayt:

"Kuylama menga Rus qahratonini,
Qishning zamhariri yer uzra oqar.
Bestujev izillab qayonga boqar,
Kuylama menga Rus qahratonini."

Shoir bu yerda Rossiya qishining sovuq va shafqatsiz manzaralarini tasvirlaydi. U bu sovuq olamda Bestujev kabi adabiy qahramonlarning iztirobini his qiladi, biroq u bu sovuq dunyoni emas, o'zining yuragini isituvchi haqiqatni eshitishni istaydi.

3-bayt:

"Menga u yo'llarni kuylamagin sen,
Shamol ham topolmas, qorli sarhadlar.
Navjuvon Radishchev, ovloq bekatlar,
Menga u yo'llarni kuylamagin sen."

Bu satrlarda shoir yo'qotilgan yo'llar va sarhadlarni ifodalaydi. Radishchev – erkinlik uchun kurashgan rus adibining nomi tilga olinishi shoirning ichki isyonini va o'z yo'lini qidirayotganini ko'rsatadi.

4-bayt:

"Kuylama u sirli yurtlar haqida,
Kuylama maftunkor olis go'shani.
Kuylama, kuylama faqat o'shani,
Kuylama u sirli yurtlar haqida."

Bu baytda shoir ko'z ilg'amas olis yurtlar, orzular va xayollar haqida o'ylashdan voz kechadi. U real hayotga qaytishni, ideallarga emas, mavjud haqiqatga qarashni istaydi.

5-bayt:

"O'zi yo'q sevgini kuylama, jonim,
Ovozing, bardoshing yetmagay bu dam.
O'chgay u fonusning shu'lalari ham,
O'zi yo'q sevgini kuylama, jonim."

Bu satrlar falsafiy teranlikka ega – mavjud bo'lmagan sevgini kuylash behuda ekanini anglatadi. Shoir fonus misolida o'tkinchi, xayoliy sevgini tasvirlaydi. Bu bayt inson hayotining haqiqatga asoslangan bo'lishi lozimligini eslatadi.

"Taqlir – haqlir" she'rining tahlili

Faynbergning "Taqlir – haqlir" she'ri inson hayotini va taqlirni falsafiy nuqtai nazardan yoritadi. Shoir taqlirni inson tomonidan o'zgartirib bo'lmasligini, uni qabul qilish lozimligini ta'kidlaydi:

"Chiranma unga,

Bor qilar ham yo'q qilar taqlir."

Bu satrlar taqlirning beqarorligini ko'rsatadi. Inson o'z hayotida nimanidir o'zgartirishga harakat qilishi mumkin, lekin taqlir har doim o'z hukmini o'tkazadi.

"Sotma faqat ruh, imoningni,

Boshqa ruh ham berilmas senga."

Bu satrda esa insonning ruhiy pokligi, imon va vijdonning qadr-qimmati yuksak qo‘yiladi. Shoir moddiy dunyo orzusi uchun inson o‘z qalbini sotmasligi lozimligini eslatadi.

Xulosa

Aleksandr Faynbergning ijodi milliy va xalqaro adabiyot orasidagi ko‘prik bo‘ldi. U rus adabiyoti an‘analarini o‘zbek she‘riyatiga olib kirdi, o‘zbek shoirlarining asarlarini dunyoga tarjima qildi va o‘zbek madaniyatiga katta hissa qo‘shdi. She‘rlari oddiy ohangda yozilgan bo‘lsa-da, ular chuqur falsafiy ma’noga ega. U o‘z ijodi bilan haqiqat va hayotning qiyin haqiqatlarini badiiy so‘z orqali ochib berdi. Faynberg nomi abadiy xalq yuragida yashaydi, uning she‘rlari esa ko‘ngillarga nur bag‘ishlashda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI ALEKSANDR FAYNBERG QORALAMAGA QASIDA She‘rlar TOSHKENT«ADABIYOT»2021

2. JOURNAL OF SCIENCE- INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 2, ISSUE 3, 2024. MARCH ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869

3. "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"